

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Ismatov Xolbuta Begmatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada respublikamizda yangi taraqqiyot strategiyasida soliq-byudjet tizimini samaradorligini ta'minlash hisoblanadi. Har qaysi mamlakatning iqtisodiy siyosatida soliq siyosati o'ta muhim rol o'ynaydi. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'nalishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Soliq, soliq munosatlari, iqtisodiy siyosat, soliq siyosati, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq siyosati yo'nalishlari, davlat byudjeti, markazlashtirilgan pul fondlari, soliq ma'murchiligi, soliq yuki.

Kirish. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi doirasida soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Strategik harakatlar rejasi doirasida quyidagi yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- (a) xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan soliq xizmatlarini rivojlantirish;
- (b) davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish;
- (v) soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini qisqartirish;
- (g) soliq tavakkalchiliklarini baholash tizimini joriy qilish va soliq hisobini takomillashtirish;
- (d) davlat soliq xizmati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish.

Strategik harakatlar rejasining yo'nalishlari doirasida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:



Xususan, **Xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan soliq xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha:**

tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va o'zini o'zi ish bilan band qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi, shuningdek, mustaqil ravishda ro'yxatdan o'tish va soliqlarni to'lash, yuridik shaxsning ulushi bo'yicha qo'yilgan taqiqlar haqidagi ma'lumotnomalarni olish, yakka tartibdagi tadbirkor maqomini tekshirish va boshqa imkoniyatlar yaratildi;

soliq solish maqsadida yer va ko'chmas mulkning kadastr hisobi va qiymatini baholash bilan to'liq qamrab olishni ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun kadastr va soliq organlari ma'lumotlar bazalari integratsiya qilindi;

tadbirkorlik uchun teng sharoit va raqobat muhitini ta'minlash maqsadida qo'llanish sohalari va faoliyat turlarini hisobga olgan holda aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash va to'lash tartibi takomillashtirildi;

soliq to'lovchilar aniq ehtiyojlaridan kelib chiqib (to'liq maslahat berish, buyurtmanomalar, ariza va shikoyatlar qabul qilish), "call-sentr" funksiyalarini kengaytirish orqali soliq to'lovchilarga xizmatlar ko'rsatish tartibi joriy etildi.

Bundan tashqari, **Davlat soliq xizmati organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish yo'nalishi bo'yicha:**

soliq to'lovchilarga real vaqt rejimida ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxatini kengaytirishga yo'naltirilgan raqamli texnologiyalar joriy qilindi;

buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning zamonaviy usullari, xalqaro soliqqa tortish, transfert narxlarni belgilash va soliq ma'murchiligida ilg'or axborot texnologiyalarini qo'llash asosida soliq organlarining xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tashkil etildi;

soliq organlariga ishga qabul qilishda tanlov tizimini, shu jumladan, nomzodlarning elektron shaklda murojaat etish imkoniyatini nazarda tutgan holda joriy etildi;

soliq xizmati organlari xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligi ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, ularni moddiy rag'batlantirish, xizmatda lavozimini oshirish, mukofotlash, intizomiy choralar qo'llash tizimi joriy etildi.

Shuningdek, **Davlat soliq xizmati organlarida korrupsiyaning oldini olish tizimini takomillashtirish yo'nalishi bo'yicha:**

korrupsiyaning oldini olish tizimini rivojlantirish, xodimlarning halolligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ishga qabul qilish shartlarini, shuningdek, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni hisobga olgan holda kadrlar siyosati takomillashtirildi;



moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish, xizmatda o‘shirish, bilimni oshirish, sog‘lig‘ini tiklash, dam olish va boshqa yo‘nalishlarni yaxshilashni nazarda tutuvchi mehnat qilish sharoitlarini takomillashtirish bo‘yicha

chora-tadbirlar amalga oshirildi;

faoliyatning ochiqligi ta‘minlandi, fuqarolar bilan bevosita muloqot kuchaytirildi va soliq organlarining ijobiy imidji shakllantirildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2020 yil yakuniga ko‘ra soliq organlari xodimlari sonini 10 % ga optimallashtirish, soliq tushumlarini esa 124 % ga oshirish imkoniyatiga erishildi.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot xizmatlarining yaratilishi, “Soliq xizmati – soliq to‘lovchiga ko‘makchi” tamoyilini amalga oshirish doirasida soliq hisoboti shakllarining soddalashtirilishi va boshqa chora-tadbirlar natijasida qisqa vaqt ichida majburiyatlarni ixtiyoriy bajarish darajasini 95 % ga, shuningdek, har oylik prognoz ko‘rsatkichlari summasining 90 % ini 25-sanaga qadar bajarilishini ta‘minlash imkonini berdi.

Xulosa va takliflar

1. Insofli soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish institutini joriy etish maqsadida, yil yakuni bilan oldingi yilga nisbatan soliq to‘lovlarini oshirgan va faoliyatida qonun buzilishlari (soliq bazasini yashirmagan) qayd etilmagan tadbirkorlik sub’ektlariga to‘lagan soliqlarini 5 foizigacha qaytarib berish amaliyotini joriy etish (Turkiya tajribasi);
2. Tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan qo‘llaniladigan barcha moliyaviy jarimalarni umumlashtirish va to‘lanadigan jarima asosiy soliq summalaridan oshib ketmaslik talabini ko‘rib chiqish.
3. Tadbirkorlarga teng raqobat sharoitini yaratish va iqtisodiyotda QQS zanjiri to‘liq shakllanishini ta‘minlashni izchil davom ettirgan holda samaradorligi past bo‘lgan soliq imtiyozlarini bosqichma -bosqich bekor qilish, muddati tugaydigan imtiyozlarni uzaytirmaslik va yangi imtiyozlar berishni cheklash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Normurzaev U. X. 2021 yildagi soliq ma‘murchiligi hamda soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar yuzasidan //Internauka. – 2021. – T. 6. – №. 182 chast 2. – S. 99.
2. Normurzaev Umid Xolmurzaevich Soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyot tarmoqlari



hamda sohalarida tizimli tarkibiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash siyosati // *Ekonomika i finansy (Uzbekistan)*. 2020. №4 (136). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/soli-imiyozlari-or-ali-i-tisodiyot-tarmo-lari-amda-so-alarida-tizimli-tarkibiy-islo-otlarni-llab-uvvatlash-siyosati> (data obrasheniya: 17.01.2023).

3. Normirzaev U. X. Iqtisodiyotni tartibga solishda soliq imtiyozlarininig ahamiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi roli // *Ekonomika i finansy (Uzbekistan)*. 2014. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/i-tisodiyotni-tartibga-solishda-soli-imiyozlarininig-a-amiyati-va-byudzheth-daromadlarini-shakllantirishdagi-rol> (data obrasheniya: 17.01.2023).

